


ILM MA'RIFATGA INTILISH VA UNING FAZILATLARI

A decorative background consisting of several overlapping blue hexagonal shapes of different sizes, creating a sense of depth and geometric complexity.

Umarkulov Aminjon

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Bu maqolada dunyoviy va islom dini nuqtai nazaridan ilmning o'rni, uning fazilatlari va musulmon insonning unga bo'lgan munosabati yoritilgan. Qur'oni Karim oyatlari va Rasululloh(s.av)ning muborak hadislari asosida ilm egalarining Alloh taolo huzuridagi yuksak maqomi, jaholatning oqibatlari hamda ilm orqali erishiladigan dunyo va oxirat saodati haqida.

Kalit so'zlar: ilm, bilim, dindagi roli, hadis

Ilm — aql nuridir. U insonlarni borliqni his etish, voqelikni idrok etish, ma'naviy va moddiy olamni anglashga, tafakkurini shakllantirishga undaydi. Ilm yashash chirog'idir. U insonlarga baxt keltiradi, yorug'likka chorlaydi, jaholatdan yiroqlashtiradi. Ziyoli insonlar jamiyatning yetakchilari hisoblanadi. Har bir mamlakatning, jamiyatning taraqqiyoti u yerda ilmu fanning naqadar rivoj topgani bilan uzviy bog'liqdir. Ilmgaga uni o'rganishga qaratilayotgan e'tibor o'sha davlatning ertangi kunini belgilab beradi.[1]

Islomda ilm juda ulug'lanadi hattoki ilm olish farz deb belgilangan, Ilm insonni bezaydi. Islom dini ilmgaga katta e'tibor bergen. Chunki ilim bo'lmasa, namoz, ro'za, zakot, haj va boshqa amallarni o'rganish ado etish ham mumkin emas.“Ilm” so'zi lug'atda bir narsani voqealikdagi idrok etishni bildiradi. Islom dinichalik ilmni ulug'langan din, tuzum yoki falsafa yo'q. Har har bir shaxsga ilm talab qilish faqat islomda bor xolos. Qur'oni Karimda ilm va ulamolar eng oliy maqomga qo'yilgan.[2] Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: «*Ilm talab qilish har bir muslim uchun farzdir*», deya marhamat qilganlar. Beshikdan to qabrgacha ilm

egallahsga intilish mo'min kishining hayot tarzi bo'lishi kerak. Bilim to'g'risida xalqimizning ham juda ko'p maqol va iboralari mavjud. Bilim olishning erta-kechi bo'lmaydi, deydi dono xalqimiz. "Ilm olish igna bilan quduq qazish", deb bekorga ta'kidlamaydi. Ilm cheksiz olam, tubsiz quduqdir. U chek-chegarasiz, uni to'liq egallahsga umrlar yetmaydi, keragini o'qish ilm sohibining mahoratiga, tajribasiga, sabr-toqatiga va albatta ustozu muallimlar ko'rsatmalariga bog'liqdir. Ma'rifatga ega bo'lmay turib maqtanish bu jaholatdir. Shuning uchun donolar aytadiki, ilm egarlangan otdir, bilganga do'st, bilmaganga dushmandir. Ta'kidlash kerakki, tarixda ham ilmsizlik oqibatida yuzaga kelayotgan barcha munosabatlar nizolarga aylanib, jamiyatning taraqqiyotiga rahna solgan. Ilmli insonlar yashaydigan, istiqomat qiladigan, faoliyat yuritadigan makonlar charog'on hisoblansa, ma'rifatsizlar makoni, ularning istiqomat manzili zimistondir. Ular ilmli insonlarga hamisha xasad ko'zi bilan boqadi, ularni orasiga turli nifoqlar solib, obro' va manfaat topishga harakat qilishadi. Ilmli insonning so'zi ravon, aniq va tushunarli bo'ladi, ilmsiz odamda ishonchhsizlik kuchli bo'lib, nutqida mavhumlik ko'proq bo'ladi. Johil kimsa aniq bir manfaatni ko'zlab ilm yo'lida yursa-da, manfaatga erishganidan so'ng shu ilmga sodiqlikni yo'qotadi, ilmnинг sof fazilatlarini soxtalashtirib, yangi foyda sari odimlaydi. Bunday insonlardan barcha yiroqda yurishni lozim deb biladi.[1]. Abu Muso al-Ash'ariy raziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytganlar: «Alloh taolo menga yuborgan hidoyat (Alloh taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yoqqan yomg'irga o'xshaydi. Ba'zi yer sof, unumdar bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi. Ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'zida to'playdi, undan Alloh taolo bandalarini foydalantiradi: odamlar suvdan ichadilar, hayvonlarini va ekinlarini sug'oradilar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kartirmaydi.

Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: Bir kishi Alloh ilmini (islomni) teran

o'rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi

o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadi. Ikkinci bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadi. Ammo o'zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir»[3.21B] buyerda ilm o'rganmoq va ta'lim haqida. “Ta'lim” arabcha “allama” fe'lidan olingen Masdar bo'lib. Bir narsaning haqiqatini batafsil va yaxshilab bildirish ma'nosini anglatadi. Il mesa bir narsani voqealikda qanday bo'lsa, ishomch ila o'shanday idrok qilishdir. Ilm o'rganish har bir musulmon uchun farz ekanligini bildik. Anas ibn Molik (r.a) rivoyat qiladi:

“Rasululoh(s.a.v):”Im talab qilish har bir musulmon zimmasiga farzdir”dedilar”.

Imom Ahmad va Ibn Mojalar rivoyat qilishgan: Demak , har bir musulmon ilm talab qilishni o'zi uchun farz deb bilishi kerak.Islomda ilm talab qilish beshikdan to qabrgacha farz qilingan.Farz Alloh taolonning qat'iy amri bo'lib, uni bajarish har bir mo'min uchun majburriydir. Farz amalini bajarmagan odam gunoh ish qilgan bo'ladi, oxuratda iqobga uchraydi. Har bir musulmon uchun o'ziga kerak narsani, hayoti uchun zaruriy ilmni, dinu dinoyatni, halol-haromni bo'lib olishda zarur bo'lgan barcha narsani o'rganish farzi ayndir. Har bir nusulmon buishni qilishi shart. Qilmagan odam gunohkordir. Musulmonlar jamoasi uchun kerakli bo'lgan hunar va ilmlarni talab qilish esa farzi kifoyadir. Hayotning har bir sohasida yetarli mutaxassislarni tayyorlab chiqarish Islom jamiyatining barcha a'zolariga farzi kifoya bo'ladi [4].Ilm olingandan keyin uni fahmlash ham kerak,ilmni fahmlash haqida hadislar ko'ramiz: Mujohid bunday deganlar: «Ibn Umar bilan Madinaga birga ketdim. Yo'lda u Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hadislaridan bittasini aytib berdi. U bunday dedi: «Rasululloh yonlarida edik, xurmo yog'i keltirib qoldilar. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Daraxtlar orasinda bir daraxt bordir, u musulmonga o'xshaydi»,— dedilar. Men: «Xurmo»,— deb aytmoqchi bo'ldim-u, lekin hammadan yosh bo'lganim uchun indamadim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o'zları: «Bu xurmo daraxtidir»,— deb aytdilar»[3.20B].

Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladi: Rasululloh aytganlar: «Tushimda menga bir idishda sut keltirildi, qongunimcha ichdim, hatto tirnoqlarim ostidan sut chiqqanini ko‘rdim, so‘ng qolganini Umar ibn Xattobga berdim». Sahobalar so‘radilar: «Yo Rasulalloh, sutni nimaga yo‘ydingiz?» «Ilmga»,— dedilar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam[3.22B] Ushbu hadisda ilmning fazilati, uni egallah va undan boshqalarga ulashish naqadar sharaflı ish ekani haqida aytildi.

Ilm olish fazilati haqida Qur’oni karimda bunday marhamat qilinadi: «**Mo‘minlar yoppasiga (jangga) chiqishlari shart emas. Ularning har bir guruhidan bir toifa chiqmaydimi?!** (Qolganlari Payg‘ambardan) **dinni o‘rganib, qavmlari ularga (jangdan) qaytib kelgach,** (gunohdan) **saqlanishlari uchun ularni ogohlantirmaydilarmi?!**» (*Tavba surasi, 122-oyat*). Bu oyatdan

ko‘zlangan maqsad – ta’lim berish va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishdir. Alloh taolo aytadi: “**Eslang (Ey Muhammad!) Alloh ahli kitoblardan, uni (Tavrot va Injilni) odamlarga, albatta, aniq bayon qilasiz, uni** (hech kimdan) **sir tutmaysiz deb ahd olgan edi**” (*Oli Imron, 187*). Bu oyat ta’lim berishning vojibligiga dalolatdir. Boshqa oyatda aytildi: “**Agar (bu haqda) bilmaydigan bo‘lsangiz, ahli zikrlardan** (ya’ni Tavrot va Injilni biladiganlardan) **so‘rasangiz!..**” (*Nahl, 43*) Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ilm olish fazilatini shunday bayon qildilar: “**Kim ilm talab qilish yo‘lini tutsa, Alloh taolo uni jannat yo‘liga yo‘llab qo‘yadi**” (*Imom Muslim rivoyati*).

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “**Maloikalar tolibi ilmni qilgan ishidan mammun bo‘lib unga qanotlarini yozadilar.** (*Imom Ahmad Ibn Hibbon va Hokimlar rivoyati*). Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: “**Ilmdan bir bob o‘rganib tong ottirishing yuz rakat namoz o‘qishingdan afzaldir**” (*Imomi ibn Abdulbar Abu Zarr rivoyat etgan*).

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam yana aytadilar: “**Kishi ilmdan bir bob o‘rganishi uning uchun dunyo va undagi narsalardan yaxshiroqdir**” (*Imom ibn Abdul Bar Hasan Basriydan mavquf holda rivoyat qilgan*). Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam

aytadilar: “**Ilmni Chinda (Xitoyda) bo‘lsa ham o‘rganinglar**” (*Imom ibn Adiy va Bayhaqiyalar zaif isnod bilan rivoyat qilgan*). Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: “**Ilm – xazina, uning kaliti – savol. So‘ranglar, so‘rashda 4 kishi savobga ega bo‘ladi: savol beruvchi, javob beruvchi, eshituvchi, ularni do‘sit tutuvchi**” (*Abu Nu’aym zaif isnod bilan rivoyat qilgan*).

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar:

“**Johil bilmaganini so‘ramasligi, olim bilganini aytmasligi durust emas**” (*Taboroniy, Ibn Murdavayh, ibn Sunnij, Abu Nu’aymlar rivoyat qilgan*). Abu Zarr rivoyat qilgan hadisda bunday deyiladi: «**Nabiy sollallohu alayhi va sallam: “Olimning majlisida hozir bo‘lish ming rakat namozdan, mingta kasalni borib ko‘rishdan, mingta janozada ishtirok etishdan afzaldir**”, dedilar.

Shunda: “**Yo Rasululloh, Qur’on tilovatidan ham yaxshiroqmi?**” deb so‘rashdi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “**Ilm bo‘lmasa, Qur’on tilovati foyda beradimi?**” (*Ibn Javziy “Mavzu’ot”da zikr qilgan*).

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “**Kim islomni tiriltirish uchun ilm o‘rganayotganida vafot etsa jannatda u bilan Payg‘ambarlar orasida bir daraja qoladi**» (*Doramiy va ibn Sunnij hasan holda rivoyat qilishgan*) Islom buyuklari ilm o‘rganish fazilatini ko‘p va xo‘b ta’kidlashgan.

Ibn

Abbos roziyallohu anhu aytadilar: “**Ilm olishda (qynaldim), bir oz xorlandim, tilagim hosil bo‘lgach azizu mukarram bo‘ldim**”. Ibn

Abu Mulayka Ibn Abbos haqida shunday deganlar: “**Chiroyda Ibn Abbosdek chiroylisini, so‘zlashda tili ravonini, fatvo berishda ilmlisini ko‘rmaganman**”.

Abdulloh Ibn Muborak aytadilar: “**Ilm o‘rganmasdan turib ulug‘likka intilgan kishiga hayronman**”.

Hakimlardan biri aytadi: “**Men ikki kishiga achinganchalik boshqa hech kimga achinmaganman**:

1. **Ilmni tushunmasdan turib o‘rgangan kishiga**
2. **Ilmnинг muhimligini tushunib, uni o‘rganmagan kishiga[5]**

Anas raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytganlar: «Ilimga e'tiborsizlik, johillik, araqxo'rlik va zinokorlikning ommaviy tus olmog'i qiyomat alomatlaridandir».

Anas raziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Men sizlarga bir hadis aytib beray. Menden keyin buni sizga hech kim aytib bermaydi. Rasululloh quyidagilar qiyomat alomatlaridir, deganlar»,— dedilar:

- ilmnинг susaymog'i;
- jaholatning kuchaymog'i;
- zinoning avj olmog'i;
- xotinlarning ko'paymog'i;
- erkaklarning ozaymog'i. Hatto 50 nafar xotinga 1 nafar erkakning boshchilik (erlik) qilmog'i»[3.22B].

UMUMIY XULOSA

Ilm va ma'rifatga intilish — har bir mo'min-musulmon uchun eng sharaflı, eng muhim yo'ldır. Islom dini ilmni iymondan ajralmas ne'mat sifatida ulug'laydi. Qur'onı Karimda va Rasululloh(s.a.v)ning muborak hadislarida ilm egalarining maqomi ko'p marotaba e'tirof etiladi. Ilm – zulmatdan nurga, johillikdan tafakkurga, gumondan haqiqatga eltuvchi yo'l bo'lib, u insonni ham dunyoda, ham oxiratda yuksaltiradi. Rasululloh(s.a.v)ning: "*Kim ilm izlab yo'lga chiqsa, Allah unga jannat yo'lini oson qiladi*" degan so'zleri bu yo'lning naqadar ulug' ekaniga dalildir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1 Muhammad ibn Ahmad al Beruniy o'rta mahsus islom bilim yurti mudarrisi: Baratov G'iyosiddin maqolasi

<https://muslim.uz/uz/e/post/22598-ilm-saodat-kaliti-ilmsizlik-jaholatdir-2#:~:text=Ilm%20%E2%80%94%20aql%20nuridir.,'likka%20chorlaydi%2C%20jaholatdan%20yiroqlashtiradi>.

2. Mir Arab oliy madrasasi talabasi Rahmonov Abduqayum maqolasi

<https://mirarab.uz/ruknlar/1794>

3. Sahihi Buxoriy. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. Qomuslar Bosh tahririysi. Toshkent 1991

4. <https://islom.uz/maqola/9544>

5. *Mirza G'olib* jome masjid imom noibi Q. K. Salimov maqolasi :

<https://www.muslim.uz/uz/e/post/31112-ilm-olish-fazilati-2>